
Tuman hokimi maktablardagi isitish tizimlarining barqarorlik holatini o'rgandi

□ Yurtimizning har bir hududida kuzgi va qishki mavsumga tayyorgarlik ko'rish borasida keng ko'lamdagi amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu yilgi mavsumga tayyorgarlik ko'rish sifatini oshirish maqsadida Rishton tumanida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

* Rishton tumani hokimi bugun tumandagi 7- va 58 -umumiy o'rta ta'lim maktablarida bo'lib, mavsumga tayyorgarligi, qozonxonalarning shayligi, sinfxona va kabinetlarning isitish tizimi, ya'ni batareyalarning yaroqliligi qay ahvolda ekanligi tekshirdi. Ayni vaqtda maktab binosida qish fasli munosabati bilan barcha sharoitlar tayyorlangan. Sinf xonalari issiq.

???? - Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning puxta bilim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish, o'qituvchilarning o'quvchilarga sifatli bilim berishini nazorat qilish maktab rahbarlaridan talab qilinadi. O'quvchilar sovuq xonalarda o'qimasligi kerak,-deydi tuman hokimi.

???? Shuningdek, qish fasli munosabati bilan barcha zaruriy ishlar amalga oshirilishi bo'yicha tuman hokimi tomonidan ta'lim mutasaddilariga tushuncha va tavsiyalar berdi.

✍ Qishning har bir kuni sinovdir. Qish faslini betalafot o'tkazish esa uning «imtihon»lariga qanchalik puxta hozirlik ko'rilganiga bog'liq. Buni nafaqat mutasaddi idoralar mas'ullari, balki har birimiz bir zum bo'lsada, yoddan ko'tarmasligimiz, tayyorgarlikni puxta qilishimiz kerak.

Rishton tumani hokimligi
Axborot xizmati

2023-01-21 14:30:31